



## RADIKAL MAFKURALARNING KO'RINISHLARI VA JAMIYAT BARQARORLIGIGA TA'SIRI

**Maftuna Namozova Shokir qizi**  
Respublika Ma'nnaviyat va Ma'rifat markazi huzuridagi  
Ijtimoiy-ma'nnaviy tadqiqotlar instituti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Radikal mafkuralarning jamiyatda paydo bo'lishi, ko'rinishlari, jamiyatning barqarorligi hamda kishilarning tafakkuriga ta'sir etish orqali jamiyatda beqarorlik holatlarni keltirib chiqarayotganligi to'g'risida fikr mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Radikalizm, Radikal mafkura, milliy, diniy, siyosiy ateistlar, feministlar, millatparastlar, kommunistlar, Diniy va dunyoviy davlat.

**Аннотация:** В данной статье приводятся мнения о радикальных идеологиях, бурно проявляющихся в обществе, их проявлениях, воздействуя на мир общества и образ жизни людей, вызывают нестабильность в обществе.

**Ключевые слова:** Радикализм, радикальная идеология, национальные, религиозные, политические атеисты, феминистки, националисты, коммунисты, религиозно-светское государство.

**Abstract:** The article provides opinions about radical ideologies that appear in society, manifest themselves and cause instability in society, affecting the world of society and the way of life of people.

**Key words:** Radicalism, radical ideology, national, religious, political atheists, feminists, nationalists, communists, religious-secular state.

Bugun insoniyat uchun eng katta xavflardan biri – Radikalizm xavfidir. Uning har qanday ko‘rinishi, milliy, diniy yoki siyosiy bo‘lsin, atrofdagilarning hayotiga salbiy ta’sir o‘tkazish bilan birgalikda hayoti uchun ham xavf tug‘diradi va oqibatda ming minglab insonlarning qurbon bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Dunyoda shiddat bilan kechayotgan ko‘p qutbli dunyodan bir qutbli dunyoga o‘tishni hoxlagan ko‘rinmas ko‘chlar tufayli g‘oya va mafkuralar ham radikal ko‘rinishda dunyo sahnasida ko‘rinish bera boshlagani ham hech kimga sir emas. Endi yer va suv uchun ko‘rashning yagicha ko‘rinishdagi radikal kayfiyat va g‘oyalarni uyg‘otish orqali jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarish esa uncha katta mablag‘ va pul talab etmasligi bilan ham qulay desak adashmagan bo‘lamiz. Barcha mamlakatlarni birdek tashvishga solayotgan Radikalizm – to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz albatta, radikal so‘ziga tarif bermaslikning iloji yo‘q.

Radikal (lot. radicalis — ildiz) – mavjud davlat tizimini tanqid ostiga olib, radikal o‘zgarishlar va islohotlar o‘tkazishni talab etuvchi siyosiy harakatga aytildi. Hozirgi vaqtida ushbu siyosiy tushunchaga siyosiy jihatdan farqli o‘laroq diniy tus berish natijasida diniy mutaasib xarakter bilan dinga amal qiluvchi shaxslar vujudga kelishi tez-tez kuzatilib turibdi. Bugungi kunda Radikal xarakterga ega shaxs, jamoa, guruh yoki to‘dalar ko‘pincha quyidagi kayfiyatda o‘zlarini namoyon etishadi:

- Shaxs yoki guruh o‘z dunyoqarashiga, fikrlariga, hayot tarziga, usullariga to‘g‘ri kelmaydigan har qanday tushunchalarini qat’iyan rad etishi,
- O‘z tanlagan yo‘lini eng to‘g‘ri yo‘l deb bilib, qolganlarni adashganlar deb hisoblashi;
- Dunyoni anglashda o‘zgacha fikrlaydigan kishilarga nisbatan nafrat;
- Shaxsning istak xohishlarini inobatga olmasdan turib o‘zining qarashlari va yo‘nalishlarida majburan harakatlanishga undash kabi kayfiyatga ega ekanligigi bilan ajralib turishadi. Davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi bilimlarni o‘rganish chog‘ida Radikalizm demokratiya va tolerantlik g‘oyalarining butunlay qarama-qarshisi ekanligini anglabgina qolmay balki, boshqa bir kishilarning erkini keskin cheklashi yoki shunga harakat qilish ko‘rinishida ham o‘zini namoyon etishini anglab olish qiyin emas. So‘ngi yillarda ijtimoiy tarmoqdan foydalanish hammani og‘ir yengilini oson qilayotgani hech kimga sir emas. Albatta, bu jarayon axborot almashinuvchi jarayonida ham o‘z aksini topmoqda. Aksariyat kishilar bugun ijtimoiy tarmoqlarning qaysidir turidan faol foydalanuvchisi hisoblanadi. Radikalizm mafkurasini o‘rganish chog‘ida ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuvlari shuni ko‘rsatdiki, oxirgi yillarda radikalizm so‘zi asosan dindorlarga nisbatan ko‘p qo‘llanilayotgan ekan. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, radikalizmning turlari ko‘p va uning har qanday shakli jamiyat uchun xavfli hisoblanadi. Radikal dindorlar xavflilik darajasi yuqori bo‘lganidek:
- radikal ateistlar,
- radikal feministlar,
- radikal millatparastlar,

- radikal kommunistlar va boshqa radikallar ham birdek jamiyat hayoti va tinchligi uchun katta xavf tug‘diradi. Nazarimizda, rivojlangan mamlakatlar matbuotida radikal guruuhlar haqida ko‘proq yoritilgani uchun bu muammo ko‘proq ularga xosdek ko‘rinadi. Ammo, shu kecha kunduzda Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda din mavzusi va dindorlar bilan bog‘liq masalalar nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo mamlakatlari uchun ham eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Dunyoda sodir bo‘layotgan ekstremizm va terrorizm muammosi kuchayib borayotgani esa bugungi davlatlar o‘rtasidagi sovuq munosabatlarda o‘zini sezdirib qo‘yayotgani ham hech kimga sir emas. Shu o‘rinda, O‘zbekistonda diniy sohadagi siyosati qanday degan savol yuzaga kelishi tabiiy. Mamlakatimizda avvalo, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahriri loyihasining ishlab chiqilishi, jamiyatda davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tomonidan joylarda olib borilayotgan ekstremistik hamda terroristik tashkilotlarning yot g‘oyalariga qarshi kurashni ayrim guruuhlar davlatni dunyoviylashtirish (sekulyarizatsiya), ya’ni jamiyat va davlat hayotida dinning rolini maqsadli pasaytirish siyosati sifatida ham talqin qiluvchilar tez-tez uchrab turmoqda. Ular o‘z radikal g‘oyalarini asosan o‘zlar uchun qulay bo‘lgan makonda “Virtual makon”da amalga oshirishni ma’qul ko‘rishmoqda. Sababi, xavfsiz va kam sarf-harajatlarning ketishidan tashqari, qamrab olish auditoriyasi ko‘pligi tufayli ushbu “ko‘rinmas kuchlar” shu yo‘lni ma’qul ko‘rishmoqda.

Xo‘sh, savol tug‘iladi ular qoralovchi “Dunyoviy davlat” nima o‘zi? Dunyoviy davlat degani – davlat boshqaruvining diniy qonunlar yoki din muhim o‘rin egallagan tuzumi bilan hamohanglikni ta’milagan holda davlat boshqaruvining dunyoviy modeliga o‘tish deya tarif bersak adashmagan bo‘amiz. Masalan, O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, davlatning ravnaqi, fuqarolarning farovonligini ta’minalash hamda milliy xavfsizlikni barqarorligini ta’minalash maqsadida dunyoviy davlat yo‘lini tanladi. O‘zbekiston bugungi kunda dunyoviy davlat hisoblanib, bosh qomusimiz Konstitutsiyamizning 61-moddasida: “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”, — degan norma qat’iy belgilab qo‘yilgan. Xo‘sh, dunyoviylik nima? Dunyoviylik ayrim kishilar xato talqin etayotgandek, ateizm emas. Dunyoviylik xudoni, iymonni inkor etmaydi. O‘zbekistonning dunyoviy davlat sifatida diniy sohadagi siyosati shundan iboratki, davlat biror-bir dinni rasmiy, deb hisoblamaydi va hech birini diniy mansublik asosida boshqa dinlardan ustun qo‘ymasligi ham qunun bilan mustahkamlab berilgan. Ya’ni, davlat dinni siyosiylashtirishga yo‘l qo‘ymaydi, biroq ayni paytda diniy tashkilotlar va konfessiyalarning rivojlanishiga ko‘mak ko‘rsatadi, ularning ichki ishlariga aralashmaydi, dindorlarga diniy ehtiyojlarini qondirishlariga to‘sinqlik qilmaydi. Shu bilan birga davlat dindorlarning diniy marosimlarni qanday o‘tkazish kerakligi, nimalarga riosa qilish yoki boshqa shu kabi masalalar bo‘yicha ko‘rsatma bermaydi. Bularning barchasi diniy soha vakillari vakolatiga kiradi. Davlat organlari barcha diniy tashkilotlar tomonidan qonunga riosa etilishini nazorat qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat

xolis hakam sifatida xizmat ko'rsatadi va har bir shaxsning har qanday dingga e'tiqod qilish yoki hech qanday dingga e'tiqod qilmaslik huquqini hurmat qiladi. Shu asnoda, davlatning qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari orqali tartibga solinadigan masalalarga diniy tashkilotlarning aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, ta'lim muassasalari tartib-qoidalariga rioya qilish to'g'risidagi hukumat qarori yoki vazirlik buyrug'i normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'quvchilar yoki ularning ota-onalari qaysi ijtimoiy guruhga, qaysi millatga mansubligi hamda diniy e'tiqodiga qaramasdan mazkur qaror va buyruqqa qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi. Qonun yoki normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan normalarni bajarish esa barcha uchun majburiyligi qonun bilan mustahkamlangan.

So'ngi yillarda jamiyatdagi ayrim guruhlar, hatto ba'zi din vakillari siyosat bilan din ajralmasdir, ijtimoiy hayotning barcha sohasi islom dini qoidalari asosida boshqarilishi kerak, degan demokratiya tamoyillariga zid da'volarni kun tartibiga kiritishga harakat qildilar. Ayrim kuchlar tomonidan davlat boshqarishi lozim bo'lgan sohalarga diniy me'yordi kiritish talablari ham qo'yila boshlandi.

Jamiyatda diniy me'yorlar doirasini asossiz kengaytirishga, hatto dinni siyosiylashtirishgacha bo'lgan urinishlar ko'zga tashlandi. Bu kabi xatti-harakatlar mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga diniy tus berish, soxta g'oyalarni asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilish va oxir-oqibatda diniy-ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarish hamda ma'lum bir jamiyatlarda beqarorlikni yuzaga keltirishga urinish hisoblanadi. Radikal mafkuralarning harakatga kelish jarayonlari yer yuzining qator mamlakatlarida kuzatilmoqda. Ushbu kayfiyatdagi mafkuralarning harakatga tushishini hatto islom davlatlari rahbarlari ham sog'lom siyosiy kuchlar hamda diniy radikalizm va ekstremizm o'rtasida g'oyaviy qat'iy kurash avj olayotganligidan havotirda. Ayrim mamlakatlarda hukumat va dindorlar o'rtasida ziddiyatlar kuchayib, hokimiyat uchun kurash avj olmoqda. Boshqa tomonidan, xalqaro miqyosda dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish orqali siyosiy, madaniy va gumanitar ta'sir hududlarini kengaytirishga urinishlar kuzatilmoqda. Ba'zi guruhlar nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa bir qator davlatlarda ham jamiyatni qonunlar emas, balki shariat me'yordi boshqarishi lozim, degan shiorlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali bong urish holatlari kuzatilmoqda. Dunyoviy davlat tuzumidan islomiy davlat tuzumiga qadam qo'yan ayrim mamlakatlarning tarixiga bir nazar solaylik. Islomni siyosiylashtirish diniy asosda siyosiy partiyalar va guruhlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Islomda qarama-qarshi oqimlar va qarashlar mavjudligi sababli mazkur partiyalar hamda guruhlar o'rtasida raqobat va kurash kuchaydi. Oxir-oqibat bularning barchasi davlatning milliy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatish va bir davlatning ichki ishlariga boshqa bir davlatning aralashuvi bilan yakunlanganligiga tarixning o'zi guvohlik beradi. Shuning uchun ham diniy me'yorlar va aqidalarni qo'llashni asossiz kengaytirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Mustaqillikning ilk davrida O'zbekiston ham boshqa qo'shni davlatlar kabi dindorlar faoliyatiga aralashmaslik hamda boshqarmaslikdan kelib chiqib ish ko'rdi va barcha diniy oqimlarga erkinlik berdi. Buning natijasida muqaddas islom dini niqobi ostida yet g'oya

hamda turli buzg‘unchi oqimlar kirib kela boshladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, chet ellarda faoliyat ko‘rsatayotgan muayyan guruhlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, ushbu guruhlar tomonidan tegishli qo‘poruvchilik ishlari olib borilmoqda. Ular o‘z maqsadlariga erishish uchun mahalliy fuqarolar orasidan o‘z tarafdarlarini sotib olmoqdalar va buning uchun moliyaviy mablag‘larni ayamasligi ular kutgan beqarorlik bilan yakunlanmoqda.

Bugun O‘zbekistonda fikrlar xilma-xilligi mavjud bo‘lib, hech kimning ma’lum bir qarashlarga ega bo‘lishiga yoki qaysi bir dinga e’tiqod qilishiga qarshilik ko‘rsatilmaydi. Buzg‘unchi mafkuralar, shu jumladan, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi taqiqlovchi choralar orqaligina kurashib bo‘lmasligini esa tarix ko‘rsatdi. Ya’ni, odamlarga o‘ylashni, u yoki bu muayyan dinga, hatto u noto‘g‘ri bo‘lsa ham, e’tiqod qilishni taqiqlab bo‘lmaydi. Biroq davlat ma’lum bir mafkura yoki g‘oyani buzg‘unchi deb atashi mumkin. Bunga uning huquqi bor. Bugun ayrim diniy oqimlarning g‘oyalari alohida faoliyat yuritadigan tashkilot emas, balki noto‘g‘ri bo‘lsa ham, qarashlar, fikrlar, e’tiqodlar tizimidir. Bu davlat bunday buzg‘unchi mafkura va g‘oyalari bilan kurashmaydi, degani emas. Davlat mazkur mafkura va g‘oyalari tarqalishining oldini olish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston buzg‘unchi mafkura va g‘oyalari bilan kurashishda faqat axborot, tushuntirish hamda profilaktika ishlariiga urg‘u bermoqda va buni barcha birdek targ‘ib etmoqda. Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning buzg‘unchi g‘oyaliga qarshi kurashish, mamlakatda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tushuntirish bo‘yicha barcha viloyatlarda ekspertlar, dinshunoslar va imom-xatiblardan iborat targ‘ibot guruhlari faoliyat olib bormoqda. Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tomonidan turli oqimlarning yet g‘oyalari ta’siriga tushgan shaxslarning ijtimoiylashuviga ko‘maklashishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, mazkur ishlar sifatini yanada yuksaltirish zarur. Mamlakatimizda diniy sohada yetarli bilimga ega tajribali dinshunoslar va ekspertlar mavjud. Lekin, shunga qaramay diniy soha vakillarining diniy hamda dunyoviy bilimlarini yanada oshirish, O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosati hamda boshqa sohalarda dadil bahsga kirisha olishlari uchun ularga ko‘mak ko‘rsatilmoxda. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita O‘zbekiston musulmonlari idorasini bilan hamkorlikda imom-xatiblar, imom-noiblar uchun turli yo‘nalishlarda o‘quvlar, fuqarolarning vijdon va diniy erkinligi huquqini ta’milash, milliy hamda diniy qadriyatlarni asrab-avaylash, boy ilmiy-tarixiy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish, diniy ma’rifiy sohada faoliyat samaradorligini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz va yaxlit tizim asosida o‘z taraqqiyot yo‘lida davom etmoqda. Biz o‘z yo‘limizda davom etish chog‘ida o‘z maqsadimiz sari sobit qadam tashlar ekanmiz, yagona vatan ravnaqi g‘oyasi maqsadi yo‘lida ochiq fikrlilik ziyoli, bilimli, keng dunyoqarashga shaxslarni ko‘paytirish orqali erisha olamiz. Fikrim yakunida radikal mafkuralarning har qanday ko‘rinishi jamiyat uchun xavflidir. Ma’lum bir radikal guruhlarning jamiyatda ta’siri oshib ketishi boshqa qatlamlarning huquqi va erki cheklanishiga olib

kelishini unutmaslik va radikal fikrlovchi kishilar bilan “Ma’rifatli jamiyat” qura olmasligimizni anglagan holda, ochiq fikrli, o‘zini bilimlarini savol ostiga qo‘ya oladigan, aqli va ruhiyati sog‘lom salohiyatli, izlanishdan to‘xtamaydigan, o‘z ustida ishlaydigan, haqiqatni aytishdan qo‘rqmaydigan intelekt sohiblari bilan birga qura olishimizni to‘liq anglagan holda birga bir maqsad yo‘lida sabarbar bo‘lishimiz zarur.

### **Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2023 йил 30 апрель <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Мирзиёев Ш.М. Тараккиётга – фақат мاشаққатли ва жасоратли меҳнат орали эришилади. //Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси / Янги Ўзбекистон, 2022 йил 21 декабрь.
3. Кутузова Н.А. Религиозный радикализм и альтернативные социальные проекты // Религия и общество - 3: актуальные проблемы современного религиоведения: сб. науч. трудов / под общ. ред. В. В. Старostenко, О. В. Дьяченко. – Могилёв: УО МГУ имени А. А. Кулешова, 2008.
4. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. II-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2019
5. Теория государства и права: учебник для юридических вузов и факультетов. /Под ред. В.М.Карельского и В.Д.Перевалова. – Москва: ИНФРА-М-Норма, 1997. – 570 с
6. Бегматов Э. Радикализм Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Тошкент. Давлат илмий нашриёти, 2007.
7. Стратегии Конгресса по борбе с радикализацией. Предупреждение радикализации и проявлений ненависти на местном уровне // URL: <https://rm.coe.int/1680719e1c>, [2].
8. “Search for Common Ground” халқаро нодавлат ва нотижорат ташкилот бўлиб, Вашингтон ва Брюсселда о‘з штаб-квартирасига эга. Мақсади зиддиятли масалаларни ечишда анъанавий усусларидан фойдаланиб, муаммоларни тинч йўл билан ҳал қилиш.
9. Search for Common Ground (SCG). Information flows and Radicalization leading to violent extremism in Central Asia. – Washington DC, 2019., URL: <https://www.sfcg.org>, 2019
10. Noah Tucker. Terrorism without a God: Reconsidering Radicalization and Counter-Radicalization Models in Central Asia // URL: <https://centralasiaprogram.org/archives/13164>